

PEDAGOGIK MAHORAT

MS
2022



PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

Maxsus son

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2022

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2022, Maxsus son

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrda qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 6 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy

Elektron manzil: ped_mahorat@umail.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas'ul kotib: Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mahmudov Mels Hasanovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G'arbiy Universitet, Bolgariya)

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor

Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)

Mustafa Said Arslon, filologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Tadjixodjayev Zokirxo'ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharopovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Chariyev Irgash To'rayevich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Qahhorov Otabek Siddiqovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

To'xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori, dotsent

Hayitov Shodmon, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rajabov Qahramon, tarix fanlari doktori, professor

Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Muhitdinova Xadicha Sobirovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Niyozmetova Roza Hasanovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Ne'matovna, pedagogika fanlari doktori (DSc)

Jo‘rabek YARASHEV, Xurshid AXROROV. Musiqa ta’limi o‘qitish metodikasini takomillashtirishda aktdan foydalanish imkoniyatlari (sibeliyus dasturi misolida).....	235
M. SAMIYEVA. “Buxoro ijrochilik uslubi” - o‘smir-o‘quvchilar axloqiy sifatlarini rivojlantirish omili sifatida.....	237
O‘. AVLIYOQULOV. Musiqa madaniyati ta’limida musiqiy savodxonlik faoliyatidan foydalanish imkoniyatlari	239
Davron RO‘ZIYEV, Shavkat QODIROV, Dilovar QODIROVA. Sharq allomalarining inson ma’naviyatida musiqaning o‘rni haqidagi qarashlari	241
Dilorom SAIDOVA, Davron RO‘ZIYEV. Maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy ko‘nikmalarini shakllantirish	244
I.M.RAXMANOVA, Davron RO‘ZIYEV. Musiqa ta’limida pedagogik texnologiyalarning ahamiyati.....	248
Munisa JO‘RAYEVA, Davron RO‘ZIYEV. O‘zbekistonda fortepiano ijrochiligi san’ati	251
Hojibuvli RAHMONOVA, Sanoqul DO‘STOV. Musiqaning inson ruhiyatiga ta’siri haqidagi sharq mutafakkirlarining fikrlari	254
Sitora XAMDAMOVA. O‘zbek xalq qo‘shiqlarining g‘oyaviy badiiy xususiyatlari	259
Islom AXTAMOV. Maktab musiqi madaniyati darslarida maqom namunalarini o‘rgatishni metodik takomillashtirish tajribalaridan	261
Ulug‘bek MIRSHAYEV, Dilara MIRSHAYEVA. Boshlangich sinf o‘quvchilarida musiqiy - ritmik harakatlarni shakllantirish	263
Dilshoda RUSTAMOVA, F.G. Nurullayev. Hozirgi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida musiqi tarbiyasi	265
Nasiba HAZRATOVA, F.G. Nurullayev. Musiqi darslari orqali o‘quvchi yoshlarning ongini va milliy tafakkurni o‘stirish omillari	268
Nodira NURULLAEVA, Sanoqul DO‘STOV. Yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashda xalq qo‘shiqlarining ahamiyati va tutgan o‘rni.....	271
Nozima NURULLAYEVA. Yoshlarni tarbiyalashda musiqiy tasavvurlarning xususiyatlari.....	273
Nigora NURULLAYEVA. Buxoro folklor qo‘shiqlari xalqning ijodiy ma’suli sifatida	275
Boburshox NURULLAYEV, Sanoqul DO‘STOV. Folklor qo‘shiqlarini tanlab olishga qo‘yiladigan metodik talablar	278
Mehriniso NURULLAEVA. Yoshlarda milliy qadriyatlarga asoslangan estetik tarbiyaning ahamiyati	281
O‘ktam IBODOV. Musiqi darslarida o‘quvchilarni musiqaga bo‘lgan ijodkorlik xususiyatlarini shakllantirish	283
Jo‘rabek YARASHEV, Dilnavoz MURATOVA. O‘rta umumta’lim maktablarida o‘quvchilarning ovozi tarbiyalash va rivojlantirish usullari	286
Dinora UMARQULOVA, F.G NURULLAYEV. Buxoro shashmaqomi ustuni	289
Dinora UMARQULOVA, F.G NURULLAYEV. O‘zbek katta ashulasining jahon miqyosidagi o‘rni.....	292
Shuhrat G‘ULOMOV. Tarixiy janrda O‘zbekiston tasviriy san’ati rivoji	294
Farrux NURULLAYEV, Nodira NURULLAYEVA. O‘zbek xalq qo‘shiqlarining uzluksiz ta’limdagi tutgan o‘rni va tarbiyaviy ahamiyati.....	297

Ulug'bek MIRSHAYEVBuxoro davlat universiteti
musiqa ta'limi kafedrası katta o'qituvchisi**Dilora MIRSHAYEVA**Buxoro ixtisoslashtirilgan san'at maktabi
musiqa nazariyasi kafedrası
yetakchi o'qituvchisi**BOSHLANGICH SINIF O'QUVCHILARIDA MUSIQIY - RITMIK HARAKATLARNI
SHAKLLANTIRISH**

Musiqa o'qituvchisi o'z darslarini shunday rejalashtirish lozimki, u har bir darsda o'zbek xalq cholg'u asboblari bilan namunalari (hech bo'lmaganda rangli rasmini) olib kirsin. Birinchi darsda musiqa asbobi bilan tanishtirilsa va birorta kuy ijro etib berilsa, ikkinchi darsda bitta - ikkita jonli ijro va magnit tasmasidan yoki disketdan shu asbobda ijro etilgan asar eshittiriladi. Uchinchi darsda esa o'qituvchi o'zbek xalq kuylaridan birortasini namunaviy chaladi, bolalar chapak, safoil, qoshiq, qayroqlar bilan jo'r bo'ladi.

Kalit so'zlar: chapak, safoil, qoshiq, qayroq, hushtak, loy hushtak.

Учитель музыки должен планировать свои уроки таким образом, чтобы на каждом уроке он включал образцы (хотя бы цветную картинку) узбекских народных инструментов. На первом уроке учитель знакомит с музыкальным инструментом и играют мелодию, а на втором уроке сыгрывает одно или два произведения в живом исполнении или прослушивают и просматривают исполняемое произведение на магнитной ленте или дискете. На третьем занятии учитель играет одно произведение из узбекских народных мелодий, а дети сопровождают хлопками, сафойлами, ложками, биданами.

Ключевые слова: чапак, сафойил, ложка, диез, свисток, свистульки.

A music teacher should plan his lessons in such a way that at each lesson he includes samples (at least a color picture) of Uzbek folk instruments. In the first lesson, the teacher introduces the musical instrument and play a melody, and in the second lesson they will play one or two live performances or listen and view the performed work on a magnetic tape or floppy disk. At the third lesson, the teacher plays one piece of Uzbek folk melodies, and the children are accompanied by claps, safoyls, spoons, bidans.

Key words: chapak, safoyil, spoon, sharp, whistle, whistles.

Kirish. O'zbek musiqa asboblari kichraytirilgan shakli mavjud bo'lmaganligi sababli dars jarayonida muayyan tovush balandligiga ega bo'lmagan musiqali o'yinchoq asboblari: shaqildoqlar, usul beruvchi tayoqchalar, yog'och qoshiqlar, likopcha qutichalar, musiqali bolg'achalar, qarsildoqlar, do'loncha, turfa qo'ng'iroqchalardan, shuningdek, faqat bitta tovush balandligiga ega bo'lgan musiqiy o'yinchoqlar: qush xushtak, loy hushtak, danak hushtak, bulbulcha, surnaycha va boshqalardan ijodiy foydalanish mumkin. Asboblardan safoil, qoshiq, qayroq, nog'ora, doiralari qo'l keladi. Yaxshi ijrochilikka, albatta, darslar davomida bolalarga jo'r bo'lishni o'rgatib borish bilan erishiladi.

Asosiy qism. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'zbek musiqa cholg'u asboblari tanishtirish cholg'u asboblari bo'yicha amalga oshiriladi. Masalan, avvalo, puflab chalinadigan asboblari (nay, qo'shnay, surnay, karnay) bilan, keyin jarang torli musiqiy urma asboblari chang bilan, so'ngra chertib va tirnab chalinadigan musiqa asboblari (qashqar rubobi, tanbur, dutor) bilan va hokazo.

Musiqa o'qituvchisining darsga o'zbek musiqa asboblari bilan namuna olib kirishi bolalar uchun darsning eng qiziqarli qismidir. Cholg'u asboblari jonli va haqiqiy musiqa asbob sifatida har bir bolani qiziqtiradi. Musiqa asboblari birinchi navbatda, bolalarda ijrochilik elementlari orqali ijodkorlik va musiqa qobiliyatlari ravnaqi uchun muhimdir. Bolalar shundoq ham hovlisida, oilada supurgi, lopatka (bel), laganlarni "o'xshatib" chalishlari ularning ijodkorliklaridan va musiqa asboblari o'ta qiziqishlaridan darak berib turadi. Musiqa asbobi o'qituvchi tomonidan chalinsa, bolalar o'zlarini namoyish qilishlariga, darsda faol bo'lishlariga yordam beradi. Darsga olib kirilgan musiqa asbobi o'qitishda ko'rsatmali didaktik qo'llanma bo'lib, o'qituvchiga bolalarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishda, ijodkorligiga ta'sir etishda, ularni musiqa savodi elementlari bilan tanishtirishda yordam beradi.

O'qituvchi kuzatish natijasida sinf bolalarining iste'dodi va imkoniyatlarini hisobga olib, bolalarning kichik ansambl yoki orkestrda ishtirok etish ma'lum cholg'u asboblarning mavjud bo'lishini talab qiladi. Musiqa asboblari nomi, ijro xarakteri, tembi - yo'g'on va ingichka (past va baland) tovushlarning joylanishini, foydalanishi va muomalada bo'lish qoidalari bilan, ijro usullari egallaydilar, ular mustaqil ijro va ansamblida dinamikaga, tempga rioya qilib, o'z yo'llarini vaqtida boshlab va yakunlab qo'shiqlarni va o'yinlarni ijro etishlari mumkin. Ishning yaxshi tekshirilgan metodlari - ko'rsatish va og'zaki tushuntirish qatoriga yangilari qo'shiladi. O'quvchiga berilgan asboblarni o'qituvchi ko'magida chalish, u yoki bu asboblarning chalishini eslash, ijodiy topshiriqlar bajarish va shu kabilar tavsiya qilinadi.

Musiqa asboblari navbatma-navbat o'zlashtirishi kerak. Avval bolalarni, masalan, doirani chalish bilan tanishtirib, bir necha dars davomida asarga jo'r bo'lishni o'rgatish mumkin. Ba'zan cholg'u asbobini bolalar birgalikda ko'rib chiqib, xato qilganlarida tuzatib, uni chalish usulini mustaqil topish topshirig'i ham foydali bo'ladi. Bunda ritm-usul beradigan asboblarni bir vaqtda o'zlashtirish mumkin. Ilk bosqichdayoq bolani ansamblda ishtirok etishi zarur bo'lgan hamkorlikdagi uyg'un harakatlarga o'rgatish lozim. Shu maqsadda o'ziga xos guruh (orkestr) tuzilib unda bolalar chapak chalib, oyoqlarini tapillatib, tayoqchalar, bo'sh yoki mayda tosh, no'xat to'ldirilgan qutichalarni taqillatib chalishadi. Bu yerda ham turli ovoz berish shakllantiriladi. Agar kaftlarni yassi holatda bo'lsa, ovoz aniq va jarangli chiqadi. Bir qo'lning uzatilgan yoki sal bukilgan barmoqlari bilan ikkinchi qo'lning kaftiga urib ovoz chiqarishni o'zgartirish mumkin. Tapillatish butun oyoq bilan, oyoq uchi bilan, poshna bilan hosil qilinadi, so'nga kaft panjalarning barchasi urib, turli ritmik topshiriqlarni to'g'ri bajarish va musiqa asbobini chilish malakalarini egallash imkonini beradi. Albatta, bu mashqlarni bajarayotgan vaqtda qat'iyatlilikni va tartib-intizomga ongli holda bo'ysinish o'quvchilardan talab etiladi.

Muhokamalar va natijalar. Tajribalar darsda urma cholg'u asboblari doira, nog'ora, safoil, qayroq, qoshiq kabilar bo'lishi yaxshi natija berishini ko'rsatmoqda. O'qituvchi rubob (dutor, g'ijjak yoki biror asbob)da o'zbek xalq kuylaridan bolalar chaladi va buncha bolalarning chapak bilan jo'r bo'lishlarni taklif etadi. Avvaldan o'qituvchi kim chiroyli va to'g'ri chapak chalsa, "mukofot"ga stol ustiga terib qo'yilgan urma cholg'u asboblari chalib, musiqaga jo'r bo'lishligini aytib qo'yadi. Agar chalib beradigan kuyi magnit tasmasi yoki disketda bor bo'lsa, uni eshittirishga qo'yib, chapak chalish usullarini avval o'zi ko'rsatib bersa samara yaxshi bo'ladi. So'ngra o'zi kuyni ijro etib, barchani chapak chalib jo'r bo'lishga taklif etadi va ijro jarayonini diqqat bilan kuzatib, bolalarga urma xalq cholg'u asboblari tarqatadi. Birinchi ijrodagi yutuq va kamchiliklar tushuntirilgach cholg'u asboblari tarqatiladi. Mazkur ijro avval cholg'u asboblari chalib jo'r bo'lish yo'lga qo'yilgach, qolgan bolalar chapak bilan jo'r bo'lishlari taklif etiladi. Cholg'u asboblari chalishga ham intiladi, albatta. Shuning uchun cholg'uchilar almashtirib turiladi. Vaqti kelib bolalarda mazkur ijrolarda yaxshi ko'nikmalar hosil bo'lgach, usul strukturasi va ijrochilik turlari bir oz murakkablashtiriladi.


Masalan, "Andijon polkasi"ga cholg'ularda chalish va chapak bilan birgalikda og'izda "Bum-bak, bakka-bum" deb usul berib ham jo'r bo'lish mumkin. Ayni holda sinfni ikkiga bo'lib, birinchi guruh chapak va cholg'uda, ikkinchi guruh esa ovozdagi usul berish bilan jo'r bo'lishlari, hatto sinf sohasiga xohlovchi bolalarni raqs bajarishga ham taklif etish mumkin. Boshqa bir vaqtda o'qituvchi doirada "Bum bak-ka" usulini aniq va tekis chalib turadi. "Bum"ga birinchi guruh bolalari, "bak-ka" usuliga esa ikkinchi guruh bolalari jo'r bo'ladilar. Kuyni doskada ko'rsatiladigan grafik surati va uning ritmik tuzilmasiga teng chorak va nimchorak notalar obrazlari bilan tanishgach, bunday mashqlarni doskada kartochkalar vositasida yaratilgan kuyni ritmik tuzilmasiga qarab bajarish oson bo'ladi. Bunday darslar, avvalo dars mazmunini qiziqarli qiladi, ularni o'zbek xalq musiqa asboblari olami bilan tanishtirishlariga yordam beradi, o'quvchilar faoliyatini faollashtiradi, ularda ijodkorlik, ijrochilik malakalari va ko'nikmalarini hamda musiqiy qobiliyatlari har tomonlama rivojlantirishni ta'minlaydi. Umuman olganda, darsda o'zbek xalq cholg'u asboblari bilan tanishish va chalishni amalga oshirishda o'qituvchidan katta ijodkorlik va bilim talab etiladi.

Musiqa darslari jarayonida musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish faoliyati o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlari, xususan, ritm-usul tuyg'usi va asar badiiy obrazini harakatlarda ifodalash malakalarini rivojlantirish uchun ham muhimdir. Bu ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun nihoyatda zarurdir. Chunki yosh bolalarning musiqiy rivojlanishida har qanday harakat turlari muhim rol o'ynaydi. Bu borada musiqa darslari mazmunida katta imkoniyatlar mavjud va musiqa darslari o'zining mazkur xususiyatlari bilan ham boshqa fanlardan ijobiy farq qiladi.

Xulosa. Ma'lumki, dars davomida o'qituvchi vaqti-vaqti bilan o'quvchilarning ruhiyatini hisobga olib, dars mazmuni va bolalarning fikrlash jarayonini to'xtatib harakatli pauzalar o'tkazadilar. Musiqa darslari musiqali harakat turlari o'rganilayotgan asarning xarakteri, badiiy obrazi, ifodaviy va ijro xususiyatlarini chuqur his etish hamda ularni ma'lum darajada ijodkorona ifodalash uchun ham muhimdir. Ana shunda dars boshidan oxirigacha uzilmaydi, mantiqan va mazmunan bir butunlikni tashkil etadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Fozilov J. O'qituvchi ma'naviyatini tarbiyalash. –Toshkent, 2000-yil.
2. Norboyev B. Istimloq va istiqbol tarbiyasi. –Toshkent, 1996.
3. Maxmudov T. Estetik did haqida. –Toshkent, 1964-yil.
4. Эстетическое воспитание в школе. –Ташкент, 1991.
5. Musulmonova O. O'qituvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish. –Toshket, 1993-yil.
6. Ortiqov T. Musiqa o'qitish metodikasi. –Namangan, 2009-yil.
7. Fayziyeva O. Maktabda musiqa. –Toshkent, 1991-yil.



Buxoro davlat universiteti muassisligidagi
“PEDAGOGIK MAHORAT”
ilmiy-nazariy va metodik jurnali
barcha ta’lim muassasalarini
hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnali maktab, kollej, institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qo‘llanma sifatida xizmat qilishi shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o‘tamiz, maqola qo‘lyozmalari universitet
tahririy-nashriyot bo‘limida qabul qilinadi.

Manzilimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy
Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 208-xona

Tahririyat rekvizitlari:

Moliya vazirligi g‘aznachiligi

23402000000100001010

MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275

BuxDU 400110860064017950100079002

Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlantiramiz!

PEDAGOGIK MAHORAT Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2022-yil maxsus son 2001-yil iyul oyidan chiqa boshlagan. OBUNA INDEKSI: 3070	Buxoro davlat universiteti nashri Jurnal oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan. Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi. Nashr uchun mas’ul: Alijon HAMROYEV. Musahhih: Muhiddin BAFAYEV. Muharrir: O‘g‘iljon Olloqova	Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar. Bosishga ruxsat etildi 08.06.2022 Bosmaxonaga topshirish vaqti 13.06.2022 Qog‘oz bichimi: 60x84. 1/8 Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i – 20,6 Adadi – 100 nusxa Buyurtma № 314 Bahosi kelishilgan narxda. “Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Buxoro shahri M.Iqbol ko‘chasi 11-uy.
---	---	--